

ZAMONAVIY TILSHUNOSLKDA LINGVISTIK TAHLIL METODLARI HAQIDA MULOHAZALAR

R.M. Asadov

IIV Samarqand akademik litseyi Tiilarni o'rganish kafedrası boshlig'i dots.

SH.H. Mardieyva

IIV Samarqand akademik litseyi Tiilarni o'rganish kafedrası etakchi o'qituvchisi.

O. Raximova

IIV Samarqand akademik litseyi Tiilarni o'rganish kafedrası etakchi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18434378>

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvistik tahlil natijalaridan nazariy va amaliy grammatika fanlaridan darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borishda va magistratura bosqichida zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari, sistem tilshunoslik, lingvistik tadqiqot metodlari, gapning tashqi va ichki qurilmalari kabi yo'nalishlarda maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: lisoniy metodlar, distributiv metod, komponentlarga ajratib tahlil qilish metodi, Substitutsiya metodi, Transformatsiya metodi, sintaksemalarga ajratib tahlil qilish.

Hozirgi zamon tilshunosligida gaplarni sintaktik qatlamda tahlil qilish borasida gap bo'laklariga, ya'ni bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib o'rganish bilan chegaralanadi. Zero, gaplarning sintaktik birliklarini, semantik maydonini, ularning differensial sintaktik hamda differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlash va bunda ma'lum lisoniy metodlarga tayanib gaplarni tahlil qiladi. Ingliz tilida harakatni ifodalovchi gap bo'laklarini tadqiq etish, harakatni ifodalovchi gap bo'laklari xususidagi ayrim mulohazalar hamda ularning sistemali munosabatlarini tahlil qilishda foydalaniladigan lisoniy metodlar haqida aytib o'tilgan mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Tillar tizimini sintaktik qatlamda tadqiq etishda tilshunoslar o'rtasida yakdillik yo'q, shuningdek, ma'lum lisoniy metodlar asosida tadqiqot o'tkazishda ham aniq va to'liq fikriy mushtaraklik mavjud emas. Jumladan, tilshunoslik uchun zarur hisoblangan gap bo'laklari muammosi xususida mukammal yechim topilganicha yo'q.

Tilshunoslik fanining o'rganish sohasi bo'lgan tilni har tomonlama tahlil qilish fan taraqqiyotiga mos metodlarni taqozo etadi. Har bir sohani tahlil etuvchi har qanday metod quyidagi talablarga javob berishi lozim.

1. Metod obyektiv bo'lmog'i kerak. Metodning qo'llanish vaqti va o'rnidan qat'iy nazar, natija bir xil bo'lishi lozim. Subyektiv yondashuvlar metod qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Metod izchil bo'lishi, aniq tushunchalarga asoslanishi lozim.

3. Metod universal bo'lishi, ya'ni sohaning asosiy bo'limlarini (kamida to'rtta) tahlil qila olishi kerak.

4. Metod foydalanish mumkin bo'lgan darajada sodda bo'lishi lozim¹.

Tilshunoslikda talab darajasida bo'lgan bir necha metod qo'llanadi. Bu metodlar xarakteriga ko'ra ikki xil:

1. Umumiy metodlar.

¹ rary.ziyonet.uz/ru/book/download/65020

2. Lingvistik tahlil metodlari.

Ushbu metodlar bir – biriga bog'liq holda ish ko'radi va muayyan xulosalarni bayon etadi.

Umumiy metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir. Jumladan, umumiydan xususiyga, xususiyydan umumiyga, analiz – sintez, oddiydan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari deyarli barcha sohalarida amal qiladi.

Lingvistik tahlil metodlari tilshunoslikning o'zi uchungina xos bo'lib, shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida lingvistik tahlil uchun quidagi metodlar qo'llanadi;

- gap bo'laklari metodi;
- tarixiy – qiyosiy metod;
- substitutsiya (almashtirish) metodi;
- distributiv metod;
- tarkibiy qismlarga ajratish metodi;
- transformatsion metod;
- statistik tahlil metodi;
- ma'no ko'lamini tahlil qilish metodi.

Gap bo'laklari metodi tilshunoslik taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq amalda bo'lgan.

Bu metodga ko'ra gaplar bo'laklarga ajratiladi. Bunda so'zning gapdagi vazifasiga asoslaniladi. Gap bo'laklari tahlili quyidagicha amalgam oshiriladi.

1. Gapning bosh bo'laklari (ega va kesim), ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ajratiladi.

2. Gap bo'laklari vazifasida qaysi so'z turkumi keltirilayotganligi aniqlanadi.

3. Gap bo'lagi vazifasida kelayotgan so'zlarning grammatik shakllari (morfologik kategoriyalar) izohlanadi².

Ushbu metod faqat sintaksis bo'limda amal qiladi. Bu metodni qo'llashdagi murakkabliklar deyarli barcha tillarda kuzatiladi.

Tarixiy – qiyosiy metod qiyosiy – tarixiy tilshunoslik asoslanadigan birlamchi metod hisoblanadi. Bu metod dunyo tillarining rang – barangligi, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni qiyoslash asnosida shakllandi. Ushbu metod quyidagi masalalarni hal etadi:

1. Tillarning o'ziga xos xususiyatlarini va boshqa tillar bilan o'xshash jihatlarni qiyoslash natijasida ularni qarindosh yki qarindosh emasligini aniqlash.

2. Qarindosh deb topilgan tillarni o'zaro qiyoslab o'rganib, ular uchun umumiy bo'lgan ginetik asosni aniqlash; bu taxlit o'rganishda retrospektiv qiyoslash usulidan foydalanish. Bunda tillarning hozirgi holatini qiyoslashdan tarixiy ko'rinishlariga qarab boriladi.

3. Tillarning tadrijiy taraqqiyoti o'rganiladi, ya'ni tilning hozirgi holatigacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini qiyosan tahlil qilish mumkin. Bunday qiyoslash prospektiv qiyoslash deyiladi.

Bunda tarixiy yozma yodgorliklar boshlang'ich manba sifatida xizmat qiladi³.

² Бабайцева В.В., Максимов Л.Ю. Современный русский язык. Ч. III. Синтаксис. Пунктуация. – Москва: Просвещение, 1981. – 267 с.

³ Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. – Москва, 2008. – 200 с.

Bu usul yordamida tillar oilasi aniqlanadi. Masalan hind – yevropa tillari oilasi, turkiy tillar oilasi, mo'g'ul tillar oilasi va hokazo. Til oilalari ma'lum xususiyatlariga ko'ra ya'na guruhlariga ajratiladi. Jumladan, turkiy tillar o'ttizga yaqin guruhga bo'linadi.

Substitutsiya metodi, almashtirish usuliga asoslanadi. Nutqdagi ma'lum bir o'rinda turgan til birliklari va boshqa muqobili bilan almashtirilib, hosil bo'lgan uslubiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Bu metod yordamida sinonim, antonym, omonim so'z larning lug'aviy ma'no tizimida tutgan o'rni belgilanadi.

Distributiv metod til birliklarining nutq jarayonida boshqa bir birliklar bilan birika olish imkoniyatini tahlil etadi. Distributivsiyani "sintaktik imkoniyat" sifatida izohlash mumkin. Masalan, biror so'z, morfema, fonemaning boshqa so'z, morfema, fonema bilan munosabatga kirish imkoniyati shu birliklarning distributsiyasi deyiladi.

Distributsiyaning morfologik, sintaktik va leksik – semantik turlari mavjud. Morfologik distributsiya bir turkumdagi so'zning boshqa turkumdagi so'z bilan munosabatga kira olishidir: sifat bilan ot, ravish bilan fe'l.

Tarkibiy qismlarga ajratish metodi har qanday butunlikni, xususan gapni hokim va tobelik munosabatida bo'lgan qismlardan iborat sifatida tahlil etadi. Bu metod grammatik sathda: morfologiya va sintaksisda amal qiladi⁴.

Transformatsion metod zamonaiy usullar ichida eng mukammali hisoblanadi. Ushbu metod tildagi sintaktik jarayonni tushuntirish imkoniga egaligi bilan xarakterlidir.

Statistik tahlil tilning barcha sathlarida qo'llanadi, shuning uchun universal hisoblanadi. Bu metod til birliklari va til hodisalarining nutqda ishlatilish darajasini aniq ko'rsatib beradi.

Ma'no ko'lamini tahlil qilish metodi so'zning lug'aviy ma'no ko'lamini alohida ma'no qirralariga ajratib tahlil etadi. Bu metod ko'p ma'noli so'zlarning ma'no ko'lamini yoritishda ahamiyatlidir.

Umuman, tilshunoslik sohasiga xos eng umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o'rni beqiyosdir.

Gaplarni sintaktik tahlil qilar ekanmiz avvalombor, biz sintaktik aloqalar haqida mukammal bilimga ega bo'lishimiz taqozo etiladi, vaholanki, sintaktik aloqalarni bilmas ekanmiz gaplarni nafaqat an'anaviy balki zamonaviy tahlilmetodlari asosida ham tahlil qilishda to'g'ri yo'nalishga ega bo'la olmaymiz.

Ta'kidlash joizki, ushbu nazariy qarashlar sintaksisga salmoqli hissa bo'lib qo'shilganligiga qaramasdan, gap qurilmalarida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni ajratish tamoyillarini va ularni tahlil etish metodlarini to'liq aniqlab berolmadilar.

Bevosita ishtirokchilarga ajratib gap qurilmasini tahlil qilish metodidan foydalanilganda asosan gap tahlilini sintaktik sathdan boshlab, tilning quyi sathiga ya'ni morfologik sathiga qarab davom ettiriladi. Bu metod vositasida tahlil olib borilganda gap tarkibidagi to'ldiruvchining semantik maydonini aniqlashda ijobiy natijaga erishish qiyin. Ushbu metod asosan sintaktik sathda gap qurilmasining eng katta hamda eng kichik ishtirokchilarga ajratib, ishtirokchilarning morfologik xususiyatlarini modellashtirishda qo'l kelishi mumkin. Bu esa gapning faqat tashqi qurilmasi, ya'ni morfologik xususiyatlarini tavsiflash imkonini beradi.

⁴ Бўронов Ж., Ҳошимов Ў., Исматуллаев Х. English grammar, Инглиз тили грамматикаси.– Тошкент: Ўқитувчи, 1974.- 352 б.

Distributiv tahlil metodidan foydalanishda tilshunoslar uning uch qirrasini e'tirof etishgan: a) qo'shimcha yoki to'ldiruvchi distributsiyasi; b) qiyosiy qarama-qarshilik distributsiyasi, c) erkin almashtirish distributsiyasi⁵. Ushbu tadqiqot ustida O'.Usmonovning fikricha "Distributiv tahlil metodi, tilshunoslarning e'tiroficha tilning morfologik sathida kengroq qo'llanishi mumkin.

Lekin sintaktik sathda tanlangan sintaktik birliklarning gap tarkibida sintaktik o'rni aniqlash va ularni komponentlarga hamda sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda keng foydalanish mumkin"⁶.

Gap qurilmasini komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodini A.M.Muxin ishlab chiqdi⁷. Qayd etilgan lingvistik metod uning izdoshlari tomonidan til birliklarini sintaktik sathda qardosh bo'lmagan tillar tizimini qiyosiy tadqiq etishda keng joriy etilmoqda⁸.

Aytish joizki, komponentlarga ajratib tahlil qilish tilning leksik sathida qo'llanilganida, V.A. Severyanovanning ta'kidlashicha, "...leksik birliklarning ma'nolari, sinonimlari, variantlari lug'atda va kontekstda aniqlanadi"⁹. Xuddi shuningdek, ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokidagi gaplarni ushbu usul tadbiqida qiyosiy tahlil qilishdagi afzalliklarining guvohi bo'lamiz. Chunki ikkinchi darajali bo'laklarning distributsiyasi har ikkala til gap tarkibida tobe bo'lib tayanch komponentlar bilan turlicha sintaktik aloqalar yordamida bog'lanishi, har xil differensial sintaktik-semantik belgilarni qamrab olishi hamda har xil variantlarining ifodalanishi kabilari chog'ishtirma tadqiqotlar uchun keng yo'l ochib beradi.

Ingliz va o'zbek tillari gap tarkibida ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilishda sintaktik birliklarning o'zaro sintaktik aloqalarini aniqlash muhim rol o'ynaydi va aniqlangan sintaktik birliklarni o'zaro munosabat jihatidan bir-biridan farqlash ham katta ahamiyatga egadir. Sintaktik aloqalarning yo'nalishi gapda ishtirok etgan birliklarning ya'ni komponent tarkibini aniqlashga keng imkoniyat yaratadi. Differensial sintaktik belgilar sintagmatik yo'nalishda sintaktik birliklarni qarama-qarshi qo'yish yoki kontrast usuli orqali ajratiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan gaplarni, qardosh bo'lmagan tillar tizimida qiyosiy tahlil qilishda transformatsiya metodining turlicha usullaridan (tushurib qoldirishni, o'rin almashtirish, verbalizatsiya va boshqalar) keng foydalaniladi. Chunki, mazkur metod yordamida gap tarkibidagi asosiy (yadro) va tobe komponentlarni bir-biridan farqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

⁵ Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent, 1973. – С. 35.

⁶ Усманов У.У., Ашуров Ш.С. Инглиз тили назарий грамматикаси (назарий граматикадан амалиёт), ўқув-услубий қўлланма, Самарқанд, 2012. – Б. 23

⁷ Мухин А.М. Структура предложений и их модели. – Ленинград, Ленинград отд.: Наука, 1968.-230с.; Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы.– Ленинград: Наука, 1976.-282с.; Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология.– СПб., 2007.-198с. ; Мухин А. М. Функциональный синтаксис.– СПб.: Наука, 1999.-260с.

⁸ Усмонов Ў.У. Гап таҳлилига янгича ёндашув // Ҳалқаро илмий-назарий анжуман. –Самарқанд:СамДЧТИ, 2004.– Б.105-108; Ашуров Ш.С. Инглиз ва ўзбек тилларида кесим типологияси// Филол. фан. номзод. диссертация.– Самарқанд, 2007.-153 б.; Жоллыбекова М.Р. Типология неполных предложений диалогической речи в разнотипных языках (на материале английского и каракалпакского языков).Дисс. канд. филол. наук.– Нукус, 2008.-156с.; Қаюмова М.С. Инглиз ва ўзбек тилларида негативлик категориясининг синтаксем тадқиқи. Филол. фан. номзоди. дисс.– Самарқанд, 2010.-155б.

⁹ Северьянова В.А. Синтаксемы в позиции приложения в современном английском языке // В сб.: Проблемы лексической и грамматической семантики английского и французского языков.– Тула, 1976.– С.105-113

Transformatsiya metodidan nafaqat sintaktik qatlam elementlarini balki matn obyekti bo'lgan unsurlarni ham tahlil qilish mumkin bo'ladi. Transformatsiya metodining quyidagi turlari farqlanadi:

- transformatsiya passivizatsiya;
- transformatsiya depassivizatsiya;
- transformatsiya interrogatsiya;
- transformatsiya nominalizatsiya;
- transformatsiya substitutsiya (o'rin almashtirish);
- tushirib qoldirish transformatsiyasi va b.

Transformatsiya metodidan eksperimental kuzatish usuli sifatida foydalanish gaplarda sintaktik birliklarning relevantlik (mutanosiblik) holatlarini ochib beradi. Aniqlangan sintaktik aloqalar yunksion modellarda tasvirlanib, mavjud aloqalar asosida yuzaga keladigan birliklarning differensial sintaktik belgilari qayd etiladi. Ularning morfologik ifodalanish usullari esa komponent modellarida o'z ifodasini topadi.

Gap tarkibidagi sintaktik birliklarni komponentlarga ajratib tahlil qilishdan keyingi bosqich, aniqlangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilari va ularning paradigmatic qatorlarini qiyoslashdan iborat, ya'ni gap tarkibidagi sintaksemalarga ajratib tahlil qilishdir. Bu o'rinda professor A.M.Muxinning quyidagi qaydini izohlab o'tish joiz deb hisoblaymiz: "Gap qurilmasini komponentlarga ajratib tahlil qilish, ya'ni sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini aniqlash hamda ularning differensial sintaktik belgilarining bir-biridan farqini ochib tahlil qilish struktual sintaksisning obyekti hisoblanadi. Gapdagi sintaktik birliklarni paradigmatic yo'nalishda sintaksemalarga ajratib tahlil qilish esa funksional sintaksisning vazifasiga kiradi"¹⁰.

Endi qiyosiy-tipologik metodga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu metod qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni o'rganishda yetakchi tahlil usuli sifatida hamisha dunyodagi barcha tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

V.Vetitskiyning ta'kidlashicha: "...tilshunoslik o'zining ilmiy mavqeini hind-evropa tillarini rekonstruksiya qilish va qiyosiy o'rganishdan boshladi"¹¹.

R.Kissenning fikricha, "...qiyosiy tilshunoslik uchun zarur bo'lgan narsa qiyosiy-tarixiy, tarixiy-chog'ishtirma hamda tipologik grammatikaning o'zaro aloqadorligini aniqlashdan iboratdir"¹².

O'zbek tipologlaridan J.B.Bo'ronov ta'kidlashicha, "lingvistik tipologiya o'zining tadqiqot obyektiga ko'ra: a) genetik tipologiya; b) areal tipologiya; v) qiyosiy; g) struktual tipologiya" kabi bo'limlarga ajratadi¹³. Tipologiya tilshunoslik fanining bir bo'limi hisoblanib, uning barcha sohalari uchun xarakterlidir va uning vazifasi tilshunoslikning har bir sohasida taksanomik jihatdan tasvirlash, obyektlarni tasniflash va qiyoslashdan iborat.

¹⁰Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология.— СПб., 2007.-198.;, 2005:154

¹¹ Ветичкий В.Г. Занимательное языкознание. Москва: Высшая школа, 1966. — С. 148

¹² Киссен Р.А. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков. Учитель, Ташкент, 1966. — С. 34.

¹³ Бўронов Ж., Ҳошимов Ў., Исматуллаев Х. English grammar, Инглиз тили грамматикаси.— Тошкент: Ўқитувчи, 1974.-3526

Ma'lumki, lingvistik tipologiya ifoda planidan qaraganda shakl tipologiyani, mazmun planidan kelganda esa semantik tipologiyani o'z ichiga oladi. Lingvistik tipologiya tadqiqot qilish maqsad va vazifasiga ko'ra tilning barcha qatlamlari asosida ish ko'radi. Aytish joizki, bizning ishimiz funksional sintaksis obyekti bo'lganligi uchun sintaktik-semantik tipologiyaga e'tibor qaratishni lozim topdik.

R.M.Asadov ham gap tarkibida kelgan ikki valentli komponentlarni tadqiq qilishda distributiv, transformatsiya metodlari hamda komponentlar va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, shuningdek, qiyosiy-chog'ishtirma tavsif va kognitiv metodlaridan foydalanadi. Hozirgi zamon tilshunosligida sintaktik tipologiyaning asosiy ish obyektlariga to'xtaladigan bo'sak, ayrim tilshunoslar sintaktik qatlamdagi til materialni shakl jihatidan tekshirishni tavsiya qilsa¹⁴, ba'zilar jumladan, E.Genyushane etalon tildan foydalanishni¹⁵, L.V.Gergardze¹⁶ esa uni tarjima bilan bog'lashni tavsiya etadi, ayrim tilshunoslar esa qiyosiy tipologiyada bir til hodisasini tilning barcha sathlarida tadqiq etishni taklif etadi¹⁷.

N.G.Aga-Zadening fikricha, turli tizimdagi tillarni qiyoslashda quyidagilarga e'tibor berish lozim¹⁸: 1) qiyoslashda har bir tilning struktural va funksional o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; 2) qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi bir-biriga mos keladigan umumiylikni topish; 3) tilning barcha bo'limlarida tillarni o'qitish xususiy metodikasida, dastur va darsliklarni tuzishda foydalanish mumkin bo'ladigan o'ziga xos umumiy ko'rinishlarni topish; 4) tekshiriladigan tillardagi grammatik va leksik-stilistik materiallar tarjimasida ilmiy asoslangan tizim yaratish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gap tahlilida shuningdek, bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilish metodidan foydalaniladi. Bu metod vositasida tahlil olib borilganda gap tarkibidagi to'ldiruvchining semantik maydonini aniqlashda ijobiy natijaga erishish qiyin. Ushbu metod asosan sintaktik sathda gap qurilmasining eng katta hamda eng kichik ishtirokchilarga ajratib, ishtirokchilarning morfologik xususiyatlarini modellashirishda qo'l kelishi mumkin.

Distributiv tahlil metodidan foydalanishda tilshunoslar uning uch qirrasini e'tirof etishgan: a) qo'shimcha yoki to'ldiruvchi distributsiyasi; b) qiyosiy qarama-qarshilik distributsiyasi, c) erkin almashtirish distributsiyasi. Distributiv tahlil metodi tilning morfologik sathida kengroq qo'llanishi mumkin. Lekin sintaktik sathda tanlangan sintaktik birliklarning gap tarkibida sintaktik o'rnini aniqlash va ularni komponentlarga hamda sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda keng foydalanish mumkin.

Komponentlarga ajratib tahlil qilish orqali agentiv sintaksemalar ishtirokidagi gaplarni qiyosiy tahlil qilishdagi afzalliklarining guvohi bo'lamiz.

¹⁴ Миртожиев М. Хозирги ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.-168б; Мустайоки А. Теория функционального синтаксиса: от семантических структур к языковым средствам – М.: Языки слав. культуры: Studiophilologica, 2016.-512с.; Почепцов Г.Г. Конструктивный анализ в структуре предложения. – Киев: Вища школа, 1971.-191 с.

¹⁵ R.M.Asadov, Sh.Sh.Davronova "Methods of Modeling Syntactic Relations" // AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 3, Issue 6, 2025. – P. 507-511. Генюшане Э.И. Соотношения пассива и статива в литовском языке // Лингвистические исследования// Сбор. науч.тр. – Москва, 1973. – С.44-50

¹⁶ <http://www.jstage.jst.go.jp/article/elsjp/45/1/45>

¹⁷ <http://books.google.co.uz/books?id=71E-SAAAC>

¹⁸ <https://search.rsl.ru/ru/record/01007679371>

Chunki agentiv sintaksemalarning distributsiyasi ingliz tili gap tarkibida tobe bo‘lib tayanch komponentlar bilan turlicha sintaktik aloqalar yordamida bog‘lanishi, har xil differensial sintaktik-semantik belgilarni qamrab olishi hamda har xil variantlarining ifodalanishi kabilari tipologik tadqiqotlar uchun keng yo‘l ochib beradi.